



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 09 | pp. 82-90 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

O'ZBEKISTONDA EKSPORT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI



Abdulatifova Mohinur Alisher qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: O'zbekistonda eksport faoliyatini rivojlantirishdagi muammoli vaziyatlarni kamaytirish choralari ko'rish bugungi kunda eksport va tashqi savdo tizimidagi dolzarb mavzulardan biridir. Hozirgi kunda tashqi iqtisodiy aloqalar milliy iqtisodiyotlar holatiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omilga aylanib qolganligi va mana shunday aloqalarning tarkibiy qismi bo'lgan eksport har bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida alohida o'rin egallashi va eksport salohiyatidan samarali foydalanish natijasida mamlakatda tovar ishlab chiqarishga ixtisoslashuv barobarida resurs unumdorligi ortadi, ishlab chiqarishning umumiy hajmi oshib boradi. Ushbu maqolada Iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashishi, ishlab chiqarishning rivojlanishi, uning samaradorligini oshishi eksport amaliyotining yaxshi yo'lga qo'yilishi bilan bog'liq ekanligi batafsil keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Eksport, tashqi iqtisodiy faoliyat, tovar, mahsulot, iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarish, diversifikatsiya, xizmatlar, investitsiya, texnologiyalar, tashqi bozor.

Eksport salohiyatidan samarali foydalanish natijasida mamlakatda tovar ishlab chiqarishga ixtisoslashuv barobarida resurs unumdorligi ortadi, ishlab chiqarishning umumiy hajmi oshib boradi. Iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashishi, ishlab chiqarishning rivojlanishi, uning samaradorligini oshishi eksport amaliyotining yaxshi yo'lga qo'yilishi bilan bog'liq. Eksport har bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida alohida o'rin egallaydi. Iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashishi, ishlab chiqarishning rivojlanishi, uning samaradorligini oshishi eksport amaliyotining yaxshi yo'lga qo'yilishi bilan bog'liq. Eksport darajasining o'sishi to'lov balansining mustahkamlanishiga, xorijiy valyuta tushumlari va zahiralarining ko'payishiga olib keladi. Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda eksport salohiyatini yuksaltirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksporti hajmini oshirish ustuvor masala sifatida qaralmoqda. Davlatning ichida ishlab chiqarilgan moddiy boyliklar eksport tarkibi milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari, uning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rni bilan bog'liq. Sanoati rivojlangan mamlakatlarga sanoat mahsulotlari, ayniqsa, mashinasozlik mahsulotlari va texnologiyalar eksport qilish xos bo'lsa, qoloq agrar iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakatlar eksportida xom ashyo va oziq-ovqat asosiy rol o'ynaydi.

Har qanday mamlakat uchun import-eksport va xorijiy davlatlarda boshqa xarajatlarni to'lash uchun zarur bo'lgan chet el valyutasining asosiy manbai hisoblanadi. Mamlakatning tashqi iqtisodiy siyosatida eksport-import ko'lamini kengaytirish muhim jihat hisoblanib, davlat eksport uchun mo'ljallangan ishlab chiqarishni qo'llab borishning turli shakllarini keng miqyosda qo'llaydi (moliyaviy ko'maklar, soliq imtiyozlari hamda boshqalar, eksportni davlat tomonidan kreditlash) kabi. Mamlakatimizda eksport faoliyatini rivojlantirish borasida bir qancha muammolar ham yo'q emas. Eksport faoliyatida tadbirkorlar, eksportchilar duch keladigan turli muammolar, qiyinchiliklar bo'lishi eksport faoliyatini rivojlanishining sustlashuviga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qabul qilgan farmoni ushbu sustlashuvni bartaraf etishga qaratilgan choralar sifatida qo'llaniladi.¹

Birinchi navbatda eksport prognoz parametrlarining bajarilishini tizimlik tarzda tekshirib, keyingi yillar uchun eksport prognozini shakllantirish ishlarini amalga oshirish o'rinlidir sababi eksport prognozining kelgusi yillar uchun shakllanishi eksportchilar va eksport faoliyati uchun ijobiy o'sishga ta'sir qiladi. Tarmoq va hududlar eksport faoliyatining o'sishiga to'sqinlik qiladigan tizimlik va joriy muammolarni aniqlashtirish hamda nobarqaror tashqi konyunktura, va yangi turdagi kutilmagan, xalqaro tahdidlar va xatarlar sharoitida davlatning eksport qilish faoliyatini rivojlantirish, eksport jarayonini amalga oshirish paytida aniq bo'lgan kamchiliklar va muammolarni o'rganib, muhim hollarda o'sha vaqtning o'zida muammo sodir bo'lgan joyida bartaraf etish yo'llarini ko'rish, eksport faoliyati va jarayonini yanada kengaytirish bo'yicha amaliy hamda qonunchilikka tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan takliflar kiritish investitsiya va eksport faoliyatini yana ham rivojlantirishga yo'naltirilgan juda muhim jihat va rivojlanishga tizimlik yo'l hisoblanadi. Eksport faoliyatini rivojlantirishdagi muammolar eksport jarayoniga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi va salbiy natijalarga olib keladi. Ularni bir vaqtning o'zida butunlay yo'q qilib yuborishning imkoni yo'q ammo ularni maksimal darajada kamaytirish choralarini ko'rish lozim.

Tashqi iqtisodiy aloqalarning har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'rni, uni davlat tomonidan turli dastaklar yordamida tartibga solish masalalari, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish tizimini rivojlantirish, milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini hamda jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvini jadallashtirishdagi ahamiyati va eksportni rag'batlantirish, mamlakat eksport faoliyatini oshirish, uni tartibga solish usullari, bu sohadagi jahon tajribasini o'rganish kabi masalalar ilmiy va o'quv adabiyotlarda o'z aksini topgan. Eksport salohiyatini oshirishda berilayotgan imtiyozlar juda murakkab iqtisodiy tushunchalardan biri bo'lib, ko'pchilik klassik va zamondosh olimlarimiz bu boradagi o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tganlar:

Bu borada Ilyosov A. raqamli iqtisodiyotda raqamli ishlab chiqarish va sanoat mahsulotlarini eksport qilishdagi ayrim muammolarga e'tibor qaratgan.²

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 30-sentabrda "Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni

² Ilyosov, A. (2020). Some problems in digital production and export of industrial products in the digital economy. *Economics and finance*. 3. 175-182 pages.

Eksport faoliyati to'g'risida dastlabki tushunchalar klassik iqtisodchi olimlar A.Smit va D.Rikardolarning xalqaro mehnat taqsimoti to'g'risidagi nazariy qarashlarida o'z ifodasini topgan. Ular mamlakatlar o'rtasidagi savdo sotiq munosabatlarining doimiy rivojlanib borishining nazariy asoslarini yaratganlar. Bu olimlar mutloq va nisbiy afzalliklar nazariyasida xalqaro savdoning afzalliklari ustida fikr yuritadi. Ular mamlakat ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda boshqa mamlakatga nisbatan mutloq afzallikka ega bo'lmasada, ammo nisbiy afzallikka ega bo'lishi mumkinligini e'tirof etadilar. Bir mamlakat muayyan mahsulotni boshqasiga qaraganda samaraliroq ishlab chiqara olishi mumkin bo'lsa, mahsulot ishlab chiqarishdagi mutloq afzalliklar vujudga keladi. Bir mamlakatda biror mahsulotni ishlab chiqarishning muqobil qiymati boshqa mamlakatdagiga qaraganda past bo'lsa, ana shu mamlakatning nisbiy afzalliklari to'g'risida gapirish mumkin. D.Rikardo, hozirda nisbiy afzalliklar qoidalari deb yuritiladigan konsepsiyani yaratgan. Ushbu afzalliklarni tahlil qilish orqali u shunday xulosa chiqargan: bir mamlakat eksport qiluvchiga nisbatan tovarlarni kamroq xarajatlar bilan ishlab chiqara olsa ham, ularni boshqa mamlakatdan import qilishi mumkin. Bunda D. Rikardo nisbiy afzallikni nazarda tutgan.³

Rossiyalik iqtisodchi olimlar Yu.A. Savinov, V.A. Oreshkin, A.A. Lebedevlar eksport salohiyati tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradilar: "eksport salohiyati - milliy iqtisodiyotning ma'lum sohalarida tashqi bozor uchun mahsulot va xizmatlar yetishtirib berish va ularni keng miqyosida maqbul narxlarda sotish qobiliyatidir".⁴

A.A. Malsevning fikriga ko'ra: "Biror bir hududning eksport salohiyati mazkur mintaqaning aniq bir tashqi bozorga chiqish va uni mustahkamlash imkoniyatlari bo'yicha baholanadigan eksport bazasidir. Mintaqa eksport bazasi deganda korxonalarining eksportga ishlab chiqarayotgan tovar va xizmatlar bilan birgalikda shu hududda raqobatbardoshlik bo'yicha jahon standartlariga mos keladigan, ammo ba'zi sabablarga ko'ra xorijga jo'natilmayotgan mahsulotlarning yig'indisidir"⁵. Yondashuvning afzallik tomoni uning eksport salohiyatini mavjud koeffitsientlar bo'yicha miqdoriy baholash belgilab ko'rsatilganligi, berilgan parametrlar tahlili uchun keng bazaning mavjudligi, eksport salohiyatini aniqlash bo'yicha universal metodikaning qo'llanishi, 2 ta kategoriya: "eksport salohiyati" va "eksport bazasi"ning o'zaro bog'liqlik darajasi ko'rsatib berilganligida o'z aksini topgan.

Mahalliy olimlardan A.F.Rasulev "eksport salohiyati – milliy iqtisodiyotning jahon bozorida raqobatbardosh bo'lgan mahsulotlarni io'lab chiqarish va yetkazib berish, eksportga ixtisoslashgan tarmoqlarni tadrijiy almashtirish bilan birgalikda ichki rivojlanish va jahon bozorida o'z o'rnini mustahkamlash maqsadida turli mahsulotlarni tashqariga olib chiqish hajmini ko'paytirish"⁶ deb ta'rif beradi. U bergan ta'rif tadqiq

³ Xurramov R.A: "Eksport va eksport salohiyati tushunchalariga nazariy qarashlar" Journal of Universal Science Research.2023-y Volume-2, Issue-2. 202-210 pages

⁴ Ю.А. Савинов, В.А. Орешкин, А.А. Лебедевлар. Экспортный потенциал отрасли по разработке и сбыту информационнокоммуникационных технологий. Российский внешнеэкономический вестник. 6 – 2013.

⁵ Мальцев А.А. Государственное регулирование внешнеэкономической деятельности в РФ 1994-95 гг. Учебное пособие. - Екатеринбург: Изд-во ЕАИУП, 2004. - 260с.

⁶ Хакимов Ф.Х. Экономический механизм повышения экспортного потенциала промышленности Узбекистана. 08.00.03 - Макроэкономика. Авт.дисс.на соис. Науч. Степу к.э.н. Ташкент-2004 г

qilinayotgan tushuncha elementlarining tadqiqot ob'ekti bilan bog'liqligi, eksportga moliyaviy-iqtisodiy ko'maklashuvchi omillarning mavjudligi bilan ahamiyatga molikdir.

Mamlakatimiz yosh olimlaridan R.Raxmonov eksport salohiyati tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: ... «eksport salohiyati – bu milliy iqtisodiyot, mintaqalar, alohida olingan tarmoqlar yoki korxonalarining eksportga kerakli darajada raqobatbardosh mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish va yetarli hajmda yetkazib berish qobiliyatidir»⁷.

“Mintaqaviy iqtisodiyot” nomli o'quv qo'llanmada mualliflar eksport salohiyati tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishadi: “Eksport salohiyati – bu milliy iqtisodiyot, mintaqalar, alohida olingan tarmoqlar yoki korxonalarining eksportga kerakli miqdorda raqobatbardosh mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish va yetarli hajmda yetkazib berish qobiliyati”⁸.

Mamlakatimizda olib borilayotgan tashqi iqtisodiy faoliyat, eksport salohiyatini oshirish masalalari respublika olimlari bilan birgalikda xalqaro tashkilotlar hamkorligida ham o'rganilgan. Bu haqida, 2010 yilda BMTning Taraqqiyot dasturi e'lon qilingan ma'ruzalarni misol qilsak bo'ladi⁹

So'nggi paytlarda davlatimizda eksport faoliyatini rivojlantirishdagi muammolarni bartaraf etish maqsadida ko'plab islohotlar olib borilmoqda. Bularni quyidagilar misolida ko'rsak bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlik subyektlarining “Eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”¹⁰gi farmonida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2022-yildagi “ochiq muloqoti”da belgilangan vazifalarni amalga oshirish, shuningdek, eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish masalasi bo'yicha vazifalar belgilandi. Bulardan bir eksport shartnomasi doirasida kelib tushmagan valyuta summasi eksportga yuklangan jami mahsulot narxining 5 foizidan oshmagan taqdirda muddati o'tgan debitor qarzdorlik hisoblanmaydi va tadbirkorlik subyektiga nisbatan jarima qo'llanilmaydi. Eksport qiluvchi tashkilotlarga foyda solig'i va aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq solinadigan bazani kamaytirish ko'rinishidagi imtiyozlar tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan tushgan umumiy tushumdagi eksport hajmining ulushidan qat'i nazar qo'llaniladi. Qovun (TIF TN kodi 1207 70 000 0), kanakunjut (TIF TN kodi 1207 30 000 0), xantal (TIF TN kodlari 1207 50 100 0, 1207 50 900 0) va maxsar (TIF TN kodi 1207 60 000 0) urug'lari eksportga ruxsat beriladi. Eksport va unga tenglashtirilgan operatsiyalarni amalga oshirganda nol darajali qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi qo'llanilishi natijasida hosil bo'lgan soliqning oshib ketgan qismi ularning murojaatiga asosan tezlashtirilgan tartibda 7 kun ichida to'liq qaytarib berilishi, bitta xalqaro standartni joriy qilish va sertifikatni olishi uchun ularga 30 ming AQSh dollaridan

⁷ Раҳмонов Р.Н. “Фарғона минтақаси экспорт салоҳиятидан оқилона фойдаланиш ва уни такомиллаштириш йўллари” мавзусидаги автореферати. Тошкент: ТМИ, 2012 йил. - 23 бет.

⁸ Qayumov A.A. va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. Toshkent: O'zMU 2004-yil, 33-bet.

⁹ Birlashgan Millatlar Tashkilotining taraqqiyot dasturi-“Структурные изменения в экономике Узбекистана: достижения, проблемы, перспективы”, “Sovershenstvovanie torgovoy politiki v selyax chelovecheskogo razvitiya”-2010.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yilning 30-sentabrdagi “Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni

ko'p bo'lmagan miqdorda moliyaviy yordam taqdim etilishi, biznes jarayonlar, eksport hajmini oshirish va marketing tadqiqotlarini amalga oshirishi uchun xorijiy maslahatchilar jalb qilinishi belgilab qo'yildi.

Shuningdek, eksport faoliyatini qo'shimcha qo'llab-quvvatlash orqali mahalliy mahsulotlarning yangi istiqbolli bozorlarga kirib borishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida, eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan eksport oldi va eksport bilan bog'liq savdo operatsiyalarini moliyalashtirish uchun ajratiladigan moliyaviy resurslar hisobidan berilgan kreditlarni o'z vaqtida so'ndirib kelayotgan tadbirkorlik subyektlariga kreditning so'ndirilgan qismiga mutanosib ravishda qo'shimcha kreditlar ajratishga ruxsat berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Eksport faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"¹¹ farmoniga muvofiq, O'zbekistonda eksport salohiyatini oshirish va eksport qiluvchi korxonalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi eksportni rag'batlantirish agentligi - mahalliy eksport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy choratadbirlarni amalga oshirish uchun vakolatli organ hisoblanadi. U eksport qiluvchilarga xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda ishtirok etish, milliy mahsulotlar va brendlarni tashqi bozorlarga chiqarish hamda xalqaro standartlashtirish hamda xalqaro sertifikatlarni olish uchun sarflangan harajatlarni kompensatsiya qilib beradi. Bundan tashqari, eksport qiluvchilar Agentlikka murojaat qilib, mahsulotni eksport bozorlariga tashish bilan bog'liq xarajatlarning 50 foizigacha qoplash uchun kompensatsiya, shuningdek, sug'urta xizmatlari eksport qiluvchilar tomonidan garov sifatida foydalanilgan taqdirda sug'urta mukofotining kompensatsiyasini olishlari mumkin. Bunda hujjat eksport qiluvchilar uchun bir qator qo'shimcha imtiyozlarni nazarda tutadi. Xususan, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan eksport qiluvchi korxonalariga beriladigan kompensatsiyalar va kafolatlar bo'yicha yangi imtiyozlar tasdiqlandi. Agarda bugungi kunga qadar tijorat banklarining eksport oldi kreditlari bo'yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiyalar faqat ishlab chiqaruvchilar-eksport qiluvchilarga berilgan bo'lsa, endilikda farmonga binoan ushbu preferensiya asosiy faoliyati savdo vositachiligi bo'lgan eksport qiluvchilariga ham joriy etiladi, shu vaqtgacha eksport qiluvchilarning tijorat banklaridan olingan kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiyalarni taqdim etish foiz stavkasi qayta moliyalash stavkasining 1,5 baravaridan oshmaydigan kreditlarga nisbatan hamda faqatgina qayta moliyalash stavkasidan oshib ketgan qismida amalga oshirilgan. Endi esa, foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiya foiz stavkasi hamda kredit hajmidan qat'iy nazar taqdim etiladi. Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun tijorat banklaridan olinadigan kreditlar bo'yicha taqdim etiladigan kafolat miqdori (kredit miqdorining 50 foizigacha) 4 milliarddan 8 milliard so'mgacha oshirildi, bugungi kunga qadar kompensatsiya berilgan ilgari ajratilgan kredit bo'yicha qarzdorlik yuzaga kelgan taqdirdagina, eksport qiluvchi kompensatsiya va kafolat olish imtiyozidan qayta foydalana olmas edi. Endi esa, oldingi kreditlar bo'yicha majburiyatlarga qaramay, ijobiy

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yilning 7-maydagi "Eksport faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"¹¹gi farmoni

kredit tarixi bo'lgan holda qo'shimcha kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiya va kafolatlar beriladi. Shu bilan birga, taqdim etilgan kafolatlar bo'yicha olinadigan komissiya miqdori 1 foizdan 0,5 foizgacha kamayadi. Ta'kidlash joizki, Bunday tashabbus va, farmon va qarorlarni qabul qilinishi bilanoq mahalliy eksport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlash davlat instituti sifatida Eksportni rivojlantirish agentligining funksiyalari hamda vakolatlari kengaytirildi.

Endilikda agentlikka tijorat banklarini eksportgacha moliyalashtirish va eksport bilan bog'liq savdo operatsiyalarini amalga oshirishga kreditlar ajratish uchun moliyaviy resurslarni taqdim etish, shuningdek xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari, xorijiy banklar va moliya kompaniyalari mablag'larini eksportgacha moliyalashtirishga jalb qilish bo'yicha vazifalarni hal qilish vakolati beriladi. Ushbu maqsadda eksportni rag'batlantirish agentligi huzurida Eksportni qo'llab quvvatlash jamg'armasi tashkil etilmoqda va uning hisobidan tijorat banklariga eksport bilan bog'liq savdo operatsiyalarini moliyalashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish maqsadida moliyaviy resurslarni ajratish mexanizmi joriy etiladi. Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasining resurs bazasini shakllantirish hamda faoliyatini boshlash uchun O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan 100 mln AQSh dollari miqdorida mablag' ajratiladi. Jamg'armani tashkil etish eksportni qo'llab-quvvatlash bir butun Milliy tizimini shakllantirishning muhim bosqichiga aylanadi, uning funksional elementlari Eksportni rag'batlantirish agentligi hamda "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi hisoblanadi. Kompensatsiya, subsidiyalar va moliyalashtirishni ta'minlashdan tashqari, boshqa yana tizimning funksiyalariga eksport shartnomasini tuzish bosqichigacha xorijiy xaridorni topish hamda muzokaralar jarayonida mahalliy eksport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlash, jumladan, respublika vazirliklari va idoralari, mahalliy hokimiyat organlari bilan eksport qiluvchilarning milliy eksport mahsulotlarini chet elga sotish, eksportni qo'llab-quvvatlash choralari, vakolatli davlat hukumat organlarining vazifalari, mavjud imtiyozlar va preferensiyalar, hamda funksiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lishini ta'minlash bo'yicha tizimli hamkorlikni o'rnatish kiradi. Milliy eksportni qo'llab-quvvatlash tizimining o'ziga xos afzalliklari - eksportchilarni "yagona oyna" tamoyili asosida kompleks qo'llab-quvvatlash imkoniyati hamda ularga o'z faoliyatida duch keladigan masalalarning keng ko'lamini hal etishda vaqt yo'qotishlarini va moddiy xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishga imkon beradi. O'tgan yillarda eksport bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun chet el valyutasining ayrim qismini majburiy sotish tizimi bekor qilinganligi, rasmiy va norasmiy valyuta kurslarining birlashtirilganligi, milliy valyutaning kursi deyarli 100 foiz pasayishiga olib keldi (bu degani, amalga oshirilgan choralar aynan eksport bilan shug'ullanadigan korxonalar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan). Ushbu faktorlar eksportni o'sishiga hamda eksportga mo'ljallangan modelni shakllantirishga qaratilgan va eksport bilan shug'ullanadigan korxonalar uchun juda qulaydir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlar raqobatdoshligini¹² ta'minlash va eksportini rag'batlantirishga doir qo'shimcha

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlar raqobatdoshligini ta'minlash va eksportini rag'batlantirishga doir qo'shimcha choratadbirlari to'g'risida"gi farmoni.

choratadbirlari to'g'risida"gi farmonga imzo chekdi. Ushbu hujjat qonun tomonidan o'ziga xos deb hisoblangan mahsulotlardan tashqari barcha eksport qilinayotgan mahsulotlarni bojdan ozod qildi va eksportni litsenziyalashtirishni bekor qildi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi¹³ga muvofiq soliq tizimi isloh qilishni chuqurlashtirish va soliq imtiyozlarini ko'paytirish belgilandi. Moliyaviy-iqtisodiy jarayonlar shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatning xalqaro moliyaviy jihatdan qay darajada rivojlanganligi yohud xalqaro moliyaviy arenada tutgan o'rnini aniqlashning ko'rsatkichlaridan biri bu mamlakatning eksport va import operatsiyalarini amalga oshirish salohiyati hisoblanadi. Hozirgi vaqtda, mamlakatimizda ishlab chiqarish subyektlariga katta miqdorda soliq imtiyozlari va tashqi investorlarga preferensiyalar berib borilmoqda hamda bularning barchasi xalqaro raqobatbardosh tovarlar (ishlar, xizmatlar) ni yaratish va ularni eksport qilish uchun bevosita xizmat qilib kelmoqda. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, ishlab chiqargan iste'mol tovarlarining 90 foizdan ortiq qismini eksport uchun yo'naltirgan tadbirkorlik subyektlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Orolbo'yi mintaqasida tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021 yil 20 noyabrdagi PF-25-sonli farmoni¹⁴ga muvofiq ish haqi fondidan ijtimoiy soliqni 12 foiz emas, balki 1 foiz miqorida budjetga to'lash imkoniyati yaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi 489-son qarori bilan tasdiqlangan "Qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rnini qoplash tartibi to'g'risida"gi nizomiga¹⁵ muvofiq Soliq summasini qoplash uchun asos bo'luvchi hujjatlar hududiy soliq organlariga to'liq taqdim etilgan holda qo'shilgan qiymat solig'ining salbiy farq summasi eksportyor tadbirkorlik subyektlari uchun ularning bankdagi hisobraqamlariga to'liq budjet hisobidan qoplab berilayotganligi ham fikrimizga yaqqol misol bo'la oladi. Bundan tashqari, eksport qilinayotgan tovarlar eksportyor tomonidan importyorga havo transporti orqali yetkazilgan hollarda transport harajatlarning 50 foiz qismi eksportni rivojlantirish agentligi tomonidan tadbirkorlik subyektiga qoplab berilayotganligini ham alohida ta'kidlash lozim. Har bir mamlakat tashqi savdoni ta'minlashda, mamlakatda yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tovarlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishda, jahon bozori konyunkturasi o'zgarishlariga uyg'un ravishda tashqi savdo operatsiyalarida soliq nazoratini takomillashtirish muhim masalalardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa: Mamlakatlarda makroiqtisodiy barqarorlikga erishishda asosan bozor usullariga asoslaniladi. Eksport faoliyati esa muhim omillardan biri hisoblanadi. Eksport faoliyatini rivojlantirishda davlat sezilarli darajada rol o'ynaydi. U ma'muriy - hududiy va iqtisodiy aralashuv chegaralaridan foydalanib, jami talab va taklifning o'zgarishiga va shu orqali makroiqtisodiy barqarorlikka ham bevosita yoki bilvosita ta'sir etadi. Mamlakatlarda iqtisodiy barqarorlikka erishmasdan turib bozor usullarini amalga oshirib bulmaydi. Shuning uchun barcha rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy barqarorlikka

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoyevning "Orolbo'yi mintaqasida tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021 yil 20 noyabrdagi PF-25-sonli farmon

¹⁵ Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi 489-son qarori bilan tasdiqlangan "Qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rnini qoplash tartibi to'g'risida"gi nizom

erishishga katta ahamiyat beriladi. Chunki, iqtisodiy barqarorlashtirish islohotlarini amalga oshirayotgan barcha mamlakatlarda eng dolzarb va qiyin hal qilinadigan vazifadir. Bu borada O'zbekiston iqtisodiyotida eksport faoliyatini rivojlantirishdagi muammolarni bartaraf etishda davlatning me'yoriy huquqiy jihatdan chora va tadbirlar ko'rishini muhim jarayon hisoblanadi.

Ma'lumotlarni olish va adabiyotlarga sharh berish bilan, tadqiqotchi o'z fikriga ega bo'ladi hamda asoslangan ma'lumotlar asosida amalga oshirmoqchi bo'lgan tadqiqotni amalga oshiradi. Tadqiqotni nufuzi uni qay darajada nazariy va amaliy asoslanganligi bilan harakterlanadi. Bu o'z-o'zidan tadqiqotchichidan tadqiqot ohirigacha mavzu bo'yicha doimiy tarzda izlanishlar olib boorishni taqozo etadi. Shu sababli zamonaviy tadqiqot ishida adabiyotlar adabiyotlar sharxiga bir bob ajratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 30-sentabrdagi "Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni
2. Ilyosov, A. (2020). Some problems in digital production and export of industrial products in the digital economy. *Economics and finance*. 3. 175-182 pages.
3. Xurramov R.A: "Eksport va eksport salohiyati tushunchalariga nazariy qarashlar" *Journal of Universal Science Research*. 2023-y Volume-2, Issue-2. 202-210 pages
4. Ю.А. Савинов, В.А. Орешкин, А.А. Лебедевлар. Экспортный потенциал отрасли по разработке и сбыту информационнокоммуникационных технологий. *Российский внешнеэкономический вестник*. 6 – 2013.
5. Мальцев А.А. Государственное регулирование внешнеэкономической деятельности в РФ 1994-95 гг. Учебное пособие. - Екатеринбург: Изд-во ЕАИУП, 2004. - 260с.
6. Токарев Ю.А. Формирование и использование экспортного потенциала. Автореферат дисс. на соиск. канд. экон. Наук: 08.00.05 Казань, 1997. 8с
7. Хакимов Ф.Х. Экономический механизм повышения экспортного потенциала промышленности Узбекистана. 08.00.03 - Макроэкономика. Авт.дисс.на соис. Науч. Степю к.э.н. Ташкент-2004 г
8. Раҳмонов Р.Н. "Фарғона минтақаси экспорт салоҳиятидан оқилона фойдаланиш ва уни такомиллаштириш йўллари" мавзусидаги автореферати. Тошкент: ТМИ, 2012 йил. - 23 бет.
9. Qayumov A.A. va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quvqo'llanma. Toshkent: O'zMU 2004-yil, 33-bet.
10. Birlashgan Millatlar Tashkilotining taraqqiyot dasturi-"Strukturnye izmeneniya v ekonomike Uzbekistana: dostijeniya, problemy, perspektivy", "Sovershenstvovanie torgovoy politiki v selyax chelovecheskogo razvitiya"-2010.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yilning 30-sentabrdagi "Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yilning 7-maydagi "Eksport faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlar raqobatdoshligini ta'minlash va eksportini rag'batlantirishga doir qo'shimcha choratadbirlari to'g'risida"gi farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoyevning "Orolbo'yi mintaqasida tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021 yil 20 noyabrdagi PF-25-sonli farmon
16. www.gov.uz –O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali.
17. www.press-service.uz–O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti.
18. www.mineconomy.uz–O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi rasmiy sayti.
19. www.review.uz – "Экономическое обозрение" jurnalining rasmiy sayti.
20. www.cer.uz – Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti.
21. www.stat.uz- O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi rasmiy axborot sayti

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

